

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Rasulov Bekzod Uktamovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti o’quv ishlari bo’yicha dekan o’rinbosari
E-mail: rasulovb1984@gmail.com
[Tel:+998 94 343 01 44](tel:+998943430144)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21195928>

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri ekanligi hamda bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari hamda bo’lajak o’qituvchilar kasbiy faoliyatlarida o’quv loyihalari bilan ishlash masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: raqamli muhit, bo’lajak o’qituvchi, loyihalash, o’quv loyihasi, kompetensiya, integrallik, tizimlilik, refleksivlik.

Аннотация. В статье рассматривается важность развития проектной компетентности будущих учителей в педагогических вузах, принципы развития проектной компетентности будущих учителей, а также вопросы работы с образовательными проектами в профессиональной деятельности будущих учителей.

Ключевые слова: цифровая среда, будущий учитель, дизайн, образовательный проект, компетентность, целостность, системность, рефлексивность.

Abstract. This article discusses the importance of developing design competence in future teachers in higher educational institutions of pedagogy, the principles of developing design competence in future teachers, and the issues of working with educational projects in the professional activities of future teachers.

Keywords: digital environment, future teacher, design, educational project, competence, integrity, systematicity, reflexivity.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatning va ta’lim jarayonining rivojlanib borishi raqobatbardosh va o’z kasnining ustasi bo’lgan hamda yuksak kompetentlikka ega bo’lgan o’qituvchiga talab oshib bormoqda. Chunki bugungi kunda ta’lim jarayonining amaliyotga yo’naltirilgan jihati ko’proq muvaffaqiyatga erishmoqda. Bu borada bo’lajak o’qituvchilarning loyiha kompetensiyasini rivojlantirish shart, buning natijasida bo’lajak o’qituvchilar o’z-o’zini rivojlantirish hamda kasbiy faoliyatda o’z-o’zini takomillashtirib borish imkoniyati yaratiladi. Bo’lajak o’qituvchilarning loyiha kompetensiyasini rivojlantirish uchun bir qancha omillar, shu jumladan, shaxsiy sifatlarga yo’naltirilgan va ijtimoiy muhit ta’sirini tahlil qilish zarur.

Bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyani shakllantirishning ahamiyati zamonaviy ta’lim tizimining yangilanayotgan talablari o’qituvchidan faqat bilim yetkazuvchi emas, balki ta’lim jarayonini tashkil etuvchi dizayner sifatida faoliyat yuritishini talab qilayotgani bilan izohlanadi. Bugungi ta’lim kompetensiyalar asosida qurilmoqda. Chunki, o’quvchilarda faqat bilim emas, balki amalga yo’naltirilgan ko’nikmalar shakllantirish zarur. Bu esa o’qituvchidan darsni to’g’ri loyihalash va natijaga yo’naltirilgan faoliyatni tashkil etish qobiliyatini talab qiladi. Bugungi kunda har bir o’quvchining ehtiyoji, qobiliyati va

qiziqishini hisobga olgan holda dars loyihasi zarur bo’lib bormoqda. Loyihalash kompetensiyasi bo’lajak o’qituvchiga differensial yondashuv asosida samarali dars loyihasi tuzish ko’nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa bo’lajak o’qituvchilarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga zaruriyatni keltirib chiqaradi.

Asosiy qism. Ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tadbqiq etish bo’yicha bir qator olimlar izlanishlar olib borganlar. N.A.Muslimov “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasi asosida kirib kelgan. Psixologik nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan vaziyatlarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, noaniq vazifalarni bajarishda, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi hamda murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi [2].

A.Maxmudov kompetentlik tushunchasiga quyidagicha qarash mavjudligini ta’kidlaydi: “kompetentlik o’zida bir nechta kompetensiyalarni qamrab olgan shaxsning integrativ tavsifi hisoblanib, kompetentlik kompetensiyaga nisbatan kengroq va hajmliroq tushunchadir, kompetentlik o’zaro uyg’un, yaxlit, ko’p qirrali tushuncha bo’lib, alohida kompetensiyalardan tashkil topadi”[1].

A.T.Xutorskiy kompetensiya sifatida ta’lim oluvchini ma’lum sohada faoliyat yuritishi uchun zarur bo’ladigan ta’limiy tayyorgarligiga qo’yiladigan ijtimoiy talablarni tushunadi. Uning fikriga ko’ra, kompetentlik ta’lim oluvchining muayyan ijtimoiy hamda shaxsiy ahamiyatga ega sohada o’z faoliyati hamda tajribasidan kelib chiqqan holda shaxsiy qobiliyatlari, fazilatlar, shaxsiy sifatleri majmui (malaka, bilim, qobiliyat, ko’nikma, qadriyatlarga munosabati)ni qo’llashidir[4].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish ularning kasbiy kompetentligini rivojlanishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Pedagogika oliy ta’lim muassalarida loyihalash faoliyatiga tayyorlash, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy faoliyatida ushbu bilim, malaka, qobiliyat, ko’nikmalarni qo’llay olishidir.

Raqamli ta’lim muhitida bo’lajak o’qituvchilarning loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri shundan iboratki, bu mavjud bo’lgan barcha resurslardan farq qiladigan yangi resurs yaratish hamda intellektual rivojlanishni keltirib chiqaruvchi fikrlashning ijodiy tarkibiy qismini rivojlantirish, loyihalarni rejalashtirish va tashkil etishda mustaqillikka ega bo’lish, bir necha variantlardan birini tanlash uchun mas’uliyatlilik, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalana olish qobiliyatini rivojlantirishdir. Bo’lajak o’qituvchilar tomonidan loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beruvchi holat esa bu ularning jamiyat va davlatning o’zgaruvchanlik talablariga muvofiq ta’lim jarayonini olib borishi, ta’lim sohasidagi hamda o’z mutaxassisligi bo’yicha so’nggi yutuqlaridan xabardorlik, yangiliklarni tezda qabul qilishi hamda doimiy ravishda o’z-o’zini rivojlantirishga xohish va intilishning mavjudligidir.

Bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligi doirasida o’quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish hamda baholash qobiliyatlarini nazarda tutadi. Bu kompetensiyani rivojlantirishda muhim tamoyillarga tayangan holda ish olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Raqamli ta’lim muhitida bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyani rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqishda ta’lim tamoyillaridan ijobiy foydalandi.

o Ilmiylik tamoyili. Loyiha faoliyati ilmiy tadqiqot natijalariga tayangan holda

amalga oshirilishi zarur. Shuningdek, har bir loyiha asosida ishlashda zamonaviy pedagogika hamda psixologiya yutuqlariga tayangan holda harakat qilish tushuniladi.

o Integrallik va tizimlilik tamoyili. Har bir jarayon tizimlilik asosida tashkil etilganda yuqori natijadorlik ko’zga tashlanadi. Loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda ham dastlab loyiha faoliyati yuzasidan bilimlar berilishi, keyin amaliyotda qo’llash jarayonlari amalga oshadi. Shuningdek, ushbu tamoyilda fanlararo integratsiya ta’minlanadi. (Masalan, pedagogika, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, metodika)

o Amaliy yo’naltirilganlik tamoyili. Bo’lajak o’qituvchilar nazariy olgan bilimlarini amaliyotda qo’llay olishi zarur. Bo’lajak o’qituvchilar tomonidan loyiha uchun tayyorlangan vositalar (dars ishlanmalari, taqdimotlar, testlar, muammoli vaziyatlar) rejalashtirilgan mashg’ulotga va uning samaradorligiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi lozim. Ishlab chiqilgan loyihalar maktab sharoitlariga mos bo’lishi ham nazarda tutiladi.

o Shaxsga yo’naltirilganlik tamoyili. Bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda har bir talabaga individual yondashish zarur. Bu jarayonda ularning qiziqishlari, qobiliyatlari hamda ehtiyojlariga ahamiyat berish lozim.

o Innovatsion yondashuv tamoyili. Bo’lajak o’qituvchilar loyihaviy faoliyatda yangi texnologiyalar, metodlar va vositalardan foydalanishi, kreativ fikrlashi, yangilikka intilishi tarbiyalanadi. Bo’lajak o’qituvchilar ijodiy fikrlashga, yangi pedagogik g’oyalarni oldinga surishga intilishi tarbiyalanib boriladi.

o Refleksivlik tamoyili. Bo’lajak o’qituvchilarda o’z loyiha faoliyatini tahlil qilishi, xatolarini anglashi hamda xatolar ustida ishlab, o’z ustida ishlash ko’nikmalari rivojlanadi.

Xulosa. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari oldida bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Shuning uchun, bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishda yuqoridagi tamoyillarga qat’iy amal qilish rivojlantirish metodikasining samarali bo’lishiga imkoniyat yaratadi hamda kasbiy faoliyatlarida o’quv loyihalari bilan ishlashda muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Shuningdek, raqamli ta’lim muhitida bo’lajak o’qituvchilarda loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish uchun kasbiy bilimlar, ko’nikma va malakalarni egallashi, bo’lajak o’qituvchilarda loyiha faoliyatining asosini tashkil etuvchi muammolarni aniqlash, mustaqil hal qilish tajribasini rivojlantirish uchun pedagoglar tomonidan sharoit yaratish, bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish uchun fanlararo bog’liqlikni o’rnatish va shuning natijasida bo’lajak o’qituvchilar tashqi sharoitlar o’zgarishi natijasida muammoni hal qilish yechimlarini modernizatsiya qilishi, bo’lajak o’qituvchilarning o’z-o’zini tarbiyalashi, o’z-o’zini rivojlantirishlari uchun faolligini oshirishga ahamiyat qaratish muhim hisoblanadi.

Demak, zamonaviy ta’lim muhitida o’qituvchi tezda o’zgaruvchan ta’lim va tarbiya sharoitlariga tezda moslashishi zarur. Shuning uchun zamonaviy o’qituvchi o’zgaruvchan sharoitga moslashuvchan va o’ziga xos fikrlash qobiliyatiga ega bo’lishi zarur. Bu bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirish va pedagogik malakaning rivojlanganlik darajasida namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Махмудов А.Х. Бо’lajak magistrnlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta’minotini takomillashtirish: Diss.. Ped fan dok. –Ташкент, 2017
2. Муслимов Н ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент: САНО-СТАНДАРТ, 2015. – Б. 4-5.]
3. Махмудов А.Х. Совершенствование дидактического обеспечения компетентностной

**“Pedagogik ta’lim va tarbiya
transformatsiyasida fundamental,
amaliy va innovatsion
tadqiqotlarning konseptual
asoslari” mavzusidagi Xalqaro
ilmiy-amaliy anjuman materilalari
to‘plami**



23.06.2026

**Proceedings of the International
Scientific and Practical
Conference on “Conceptual
Foundations of Fundamental,
Applied, and Innovative
Research in the Transformation
of Pedagogical Education and
Upbringing”**

подготовки будущих магистров: Дисс.... док.пед.наук. –Ташкент, 2017. –С. 55-56

4. Хуторский А.В. Современная дидактика: учебник для вузов. СПб: Питер, 2001. – 568 с./ 110-б

5. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: учебное пособ е.- М. Народное образование, 1998

6. Григорьева, Е.И., Максимова Л.Н. Проектирование как эффективная технология обучения студентов творческих специальностей // Вестник ТГУ. 2021. №193. - С. 142-148

7. Немчанина Е. С. Проектная деятельность педагога в работе с детьми с ОВЗ // Теория и практика образования в современном мире: материалы III Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, май 2013 г.). СПб.: Реноме, 2013. С. 133-135. URL <https://moluch.ru/conf/ped/archive/70/3778/> (дата обращения: 11.03.2019)